

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

ISMAILOV SHOHRUXMIRZO ZAKIRJAN O'G'LI

VIII-XIII ASRLARDA XORAZMSHOHLAR TANGALARI

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Ismailov Shohruxmirzo Zakirjan o‘g‘li VIII-XIII asrlarda Xorazmshohlar tangalari.....	3
Исмаилов Шохрухмирза Закирджан углы Монеты хорезмшахов VIII-XIII вв.....	25
Ismailov Shokhrukhmirzo Zakirjan ughli The coins of Khorezmshahs in the 8 th -13 th centuries.....	47
Эълон қилинган ишлар рўйхати Список опубликованных работ List of published works.....	51

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

ISMAILOV SHOHRUXMIRZO ZAKIRJAN O'G'LI

VIII-XIII ASRLARDA XORAZMSHOHLAR TANGALARI

07.00.01 – O'zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Urganch – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B 2023.1.PhD/Tar783 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Xorazm Ma'mun akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) hamda "Ziyonet" (www.ziyonet.uz) axborot-ta'lim portalida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Boboyorov G'aybulla Bolliевич
tarix fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xolikulov Axmadjon Boymaxammatovich
tarix fanlar doktori, professor

Djumaniyzova Feruza Djumanazarovna
tarix fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi kengashning 2024-yil "13" sentabr soat 10:00 da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya matni bilan Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1-1419 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-66-16. e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "26" avgust kuni tarqatildi.

(2024 yil "26" avgust da 8 raqamli reyestr bayonnomasi.)



M.K. Saribaev,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, t.f.d., dotsent

X.X. Matyakubov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD., dotsent

U.I. Abdullayev,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoni sabab xalqlarning tarixiy-madaniy taraqqiyotini o'rganish, tarixiy merosni asrash va zamonaviy ilmiy metodlar asosida tadqiq etish zamonaviy ilm-fanda muhim vazifalardan biriga aylanib ulgurgan. O'z tarixini bilish va o'zgaralar o'tmishiga hurmat bilan qarash mintaqaviy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida keng miqyosda o'zaro hamkorlikning chuqurlashuviga mustahkam poydevor yaratadi. Tabiiy geografik joylashuviga ko'ra, Yevrosiyo chorrahasida joylashganligi tufayli Markaziy Osiyo xalqlarining ilk va rivojlangan o'rta asrlardagi tarixini o'rganishda dunyoning qator yirik ilmiy muassasalarida Xorazm tarixiga alohida o'rin ajratilib kelinmoqda. Shu jihatidan, mintaqaning Yevrosiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rni bo'yicha tadqiqotlarda arxeologiya va madaniy antropologiya yo'nalishlaridagi tadqiqotlarga, xususan, numizmatik izlanishlarga katta ehtiyoj sezilmoqda. Shu bois, xalqlar o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalar va ta'sir ildizlariga murojaat etish o'z dolzarbligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston tarixi Markaziy Osiyo tarixining ajralmas qismidir. Bu borada yetakchi ilmiy muassasalari tomonidan Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, va Qoraxoniylar davlatlari singari ilk va rivojlangan o'rta asrlarda Xorazmshohlar davrida Xorazmning moddiy va ma'naviy madaniyati, davlatchilik va iqtisodiy taraqqiyoti va savdo munosabatlari kabi masalalar chuqur o'rganilmoqda. Biroq bu sohada Xorazm vohasi Arab xalifaligi tarkibiga kirganidan boshlab, mo'g'ullar bosqiniga qadar bo'lgan davrda hududda kechgan siyosiy jarayonlar, Xorazmshoh Afrig'iylar sulolasining taxtdan ag'darilishi, Jurjoniyaning Ma'muniylar poytaxti sifatida Xorazmdan ajralib chiqishi, xorazmliklarning Sharqiy va Shimoliy Yevropa, Janubiy Sibir xalqlari bilan olib borgan savdo munosabatlari, Xorazmshohlar tomonidan ishlatilgan taxallus, unvon turlari va ularning tarixiy voqeyliklar bilan bog'liqligi kabi ilmiy muammolar numizmatik manbalarga qiyosan yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababdan, hozirgi kunda O'zbekiston va Markaziy Osiyo miqyosida pul munosabatlari tarixini yangi nazariy, konseptual-uslubiy asoslarda o'rganish, uni xolisona yoritish va ma'naviy-madaniy tarix muammolariga haqqoniy baho berish muhim vazifaga aylangan.

Mamlakatimiz miqyosida fan va ta'limga innovatsion g'oyalarni joriy etish zarurati so'nggi yillarda qabul qilinayotgan qator hujjatlarda aks etgan. Zero, "yangi jamiyat qurilishi jarayonida xalqimizning tarixida boy madaniyat va bunyodkorlik an'analarini o'rganish va ulardan foydalanish katta ahamiyatga ega"¹ dir. Xorazmshohlar davridagi Xorazmning mintaqa sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini yangi ilmiy ma'lumotlar asosida tadqiq etish va umumlashtirilgan holda xulosalar chiqarish ko'lami, uning ahamiyatini chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Shu bois,

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон фармонининг 1-илоvasида келтирилган "2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси". [Электрон ресурс]. <http://strategy.regulation.gov.uz/uz/document/2>. (Murojaat qilingan sana: 17.11.2017).

Xorazmda hukmdorlik qilgan turli sulolalarga oid hukmdorlar davrida yuz bergan tarixiy-siyosiy jarayonlarni yangicha qarashlar va yondashuvlar asosida tahlil qilish hozirgi davr zaruriyatidan kelib chiqqan.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining 2008-yilning 12-sentabrida qabul qilingan “Muzeylar to‘g‘risida”gi qonuni¹, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni², 2018-yil 19-dekabrda PQ – 4068 – sonli “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari³, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-sentabrda 792-son – “Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarorlarida⁴ hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyat, ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy rivojlanish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” dasturining ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorazmshohlar davri tangalari tarixini yorituvchi yozma manbalar va tadqiqot ishlari son jihatdan juda kamchilikni tashkil qilib, ularni kompleks o‘rganish hamda yakuniy xulosalar chiqarish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu mavzuga oid bo‘lgan tarixiy ma‘lumotlar qo‘lyozma asarlarda hududning faqat siyosiy tarixi kengroq yoritilganligi, tangashunoslik jihatidan deyarli o‘rganilmaganligini ko‘rish mumkin. Bunday asarlar asosan biror bir hukmdor ta‘sirida, yoki biror davlatning siyosiy ruhida yozilganligi va voqealar asosan bir tomonlama o‘ta tanqidiy yoki o‘ta ijobiy bayon qilinganligini ko‘rish mumkin. Bunday asarlar qatoriga Sirojiddin Muhammad Juzjoniy, Abu Ja‘far at-Tabariy, Abu Nasr Muhammad ibn Abdujabbor Utbiy, Abul Fazl Muhammad ibn Husayn Bayhaqiy, An-Nasaviy, Juvayniy Xo‘ja Alouddin Atomalik, Izzaddin ibn al-Asir al-Jazariy, Rashididdin Fazlulloh kabi tarixchilarning asarlarini misol qilish mumkin.

XX asrning boshlaridan boshlab arxeologik tadqiqotlar davomida topilgan numizmatik ashyolar va tarixiy manbalar asosida o‘tkazilgan tadqiqotlarda ham ushbu mavzu bir qadar tadqiq qilingan. Lekin yuqorida ta‘kidlanganidek, bu tadqiqotlar ham ushbu mavzuni to‘laqonli yoritishga imkon bermaydi. Ya‘ni, Xorazmshohlar davrida tanga-pul munosabatlari masalasiga bag‘ishlangan yoki mazkur muammoni to‘liq ochib beruvchi muayyan bir manba mavjud emas. Biroq, uning mohiyatini ochib beruvchi kichik xajmli ilmiy tadqiqot ishlari, ilmiy maqolalar A. Markov, V. V. Bartold, E. Zaxau, S. P. Tolstov, Z. Bunyodov, E. Paxamov, A. M. Mandelshtam, B. I. Vaynberg, A. V. Gudkova, B. S. Saypanov, I. Qafes o‘g‘li, U. L.

¹ <https://lex.uz/docs/1391728>

² 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturi // Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.02.2017-y., 06/17/5264/0339-son; <https://lex.uz/docs/3107036>

³ <https://lex.uz/docs/3117025?ONDATE=18.02.2017%2000> ; <https://lex.uz/docs/4113465>

⁴ <https://lex.uz/docs/4524476>

Velin kabi tadqiqotchilar tomonidan yaratilganligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, so'nggi yillarda V. V. Artev, A. O'zbayraktar, K. Yildirim, M. Fyodorov, A. Kuznetsov, B. Kochnev, Sh. Y. Mahmud kabi tadqiqotchilar o'z ishlarini olib borishgan. Shuningdek, mazkur mavzuga oid davr doirasida o'z tadqiqot ishlarini o'zbek tadqiqotchilaridan G'. Boboyorov, A. Ataxodjaev, Q. Masharipov, B. Abdirimov tadqiqotchilar amalga oshirgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Xorazm Ma'mun akademiyasida 2020–2021-yillarda bajarilgan I-FA-2019–25 “Xorazm shaharlarning tarixi, madaniy meroslari, obidalari va san'at asarlarining tadqiqotlari asosida SMART texnologiyalarini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihaning ilmiy–tadqiqot ishlari rejasida doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi VIII-XIII asrlar boshlarida Xorazmshohlar davrida zarb qilgan tangalarni numizmatik jihatdan tahlil qilish orqali bu davrda sodir bo'lgan siyosiy, iqtisodiy voqeliklarni yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Mahalliy va xorijiy muzeylar, shaxsiy kolleksiyalarda saqlanayotgan tangalarning xususiyatlarini ilmiy tadqiqotlardagi ma'lumotlar bilan umumlashtirish, tahlil qilish va ilmiy muomalaga kiritish;

Xorazm hukmdorlari tomonidan zarb qilingan tangalarni ilmiy-amaliy jihatdan tasniflash, tiplar va toifalarga bo'lish. Shuningdek tangalarni o'zaro va mintaqaning boshqa tangalariga qiyosan tahlil qilish;

Xorazm davlatining VIII-XIII asrlarda buyuk ipak yo'lida olib borilgan savdo munosabatlarida tutgan o'rnini numizmatik manbalar yordamida tahlil qilish;

O'rta Osiyo hududlari, xususan, Xorazmga islom dinining kirib kelishi bilan tangalar zarb qilish an'alarida yuz bergan o'zgarishlarni o'rganish hamda mohiyatini ochib berish;

Xorazmshohlar davri oid tangalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish orqali VIII-XIII asrlarda mintaqada yuz bergan siyosiy jarayonlar, tarixiy voqeliklarni o'rganish va yoritishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini VIII-XIII asrlarda Xorazmshohlar davlatlarida zarb qilingan tangalar tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini VIII-XIII asrlarda Xorazmshohlar davlatlarida zarb qilingan tangalar bilan bog'liq yozma va arxeologik ma'lumotlar, mavzu yuzasida olib borilgan izlanishlar, tangalardagi matnlarning bitilishiga sababchi bo'lgan siyosiy jarayonlar, Xorazmshohlar davri tangalarining davlatchilik va iqtisodiy hayotdagi ahamiyati kabi masalalar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiy – qiyosiy hamda tipologik tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish va tizimlashtirish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

VIII-XIII asrlarda Afrig'iylar, Ma'muniylar, Anushteginiylar davriga oid Xorazmda zarb qilingan tangalar iqtisodiy munosabatlar uchun muayyan bir vosita rolini bajarish bilan birga, hukmron sulolalarning ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jihatlarini ham o'zida aks ettirganligi isbotlangan;

VIII-XIII asrlarda Xorazmshohlar sulolalari hukmdorlari tomonidan zarb qilingan jami 237 tipga oid tangalar aniqlanganligi, ulardan ayrim tiplari shu paytgacha ilmiy tahlil qilinmaganligi aniqlanib, ular o'zining Xuroson yoki Movarounnahr va Xorazm tangalari kabi ko'plab turlari mavjudligi dalillangan; X asrda Xorazmning ikkiga bo'linishi jarayoni 959-967-yillar oralig'ida sodir bo'lgani va uning sabablari, Ma'muniylardan Muhammad ibn Ali 967-yilda amir sifatida taxtga kelgani va Afrig'iy hukmdor Ahmadning siyosiy faoliyati haqidagi yangi ilmiy ma'lumotlar tangalar tahlili yordamida isbotlangan;

Sharqiy va Shimoliy Evropa, Skandinaviya yarimoroli, Janubiy-G'arbiy Osiyo hududlaridan topilgan Afrig'iylar sulolasi hukmdorlarining, Sharqiy Evropa va Janubiy Sibir hududlaridan topilgan Ma'muniy hukmdorlar tangalarining tahlili asosida, VIII-XIII asrlarda Xorazmning Buyuk ipak yo'li tarmoqlari bo'ylab Skandinaviya yarimorolidan Damashqgacha, Qora dengizdan Xitoygacha bo'lgan savdo munosabatlarida o'ziga xos o'rin tutganligi yozma manbalar, muzey ashyolari, numizmatik eksponatlar asosida isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

VIII-XIII asr boshlarida Xorazmshohlar tangalari va tanga-pul munosabatlari masalasi mavjud numizmatik ashyolar, yozma manbalar va muzey eksponatlar asosida tizimlashtirilib, uslubiy va nazariy jihatdan ishlab chiqilgan;

ushbu tadqiqotda tarixiy – qiyosiy tahlil tamoyillari asosida mavzu yuzasidan yangi ilmiy qarashlar va yondashuvlar ishlab chiqilgan;

tadqiqotning natijalari asosida mutaxassislar tayyorlash, innovatsion g'oyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etishda muzey fondlarida saqlanayotgan mavzuga oid eksponatlar yuzasidan takliflar kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi: VIII-XIII asrlarda Xorazmshohlar tangalari masalasini arxeologik manbalar, ilmiy adabiyotlar hamda zamonaviy yondashuvlardan foydalanganligi, xolislik tamoyillarining qo'llanilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, dissertatsiya Xorazmshohlar davri tangalari tarixining umumlashtirilgan uslubiy yondashuvlar, nazariy xulosalar va numizmatik tadqiqotlar natijalari shu mavzuda tadqiqot ishlarini olib boruvchilar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi va oliy o'quv yurti talabalari uchun tarix, numizmatika, manbashunoslik kabi fanlaridan darslik hamda o'quv qo'llanmalarini yangi ma'lumotlar bilan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati o'zbek xalqi moddiy va ma'naviy merosini boyitib borish va targ'ib qilish, Xorazmshohlar davri tangalari ro'yxatini tuzish va O'zbekistonda kolleksion (numizmatik) turizmni rivojlantirishga, shuningdek, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasida madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlarning ssenariysini tayyorlash hamda internet orqali Xorazm tarixi bilan bog'liq saytlarni boyitishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. VIII-XIII asrlarda Xorazmshohlar davriga oid tangalarning tadqiq etish va ular asosida shu davrda sodir bo'lgan siyosiy jarayonlarni o'rganish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va xulosalar asosida:

Miloddan avvalgi asrlardan boshlab Xorazm tangalari o'ziga xos ikonografiyasi old yuzasida toj kiygan hukmdorlar portreti, teskari yuzasida otlıq-chavandoz va hukmdorlar tamg'asi), pelegrafik jihatları va unvoni (qadimgi xorazmiy yozuvida MR'Y MLK' ya'ni, "mening hukmdorim" iborasi) bilan O'rta Osiyoning boshqa hukmdorları tangalaridan farq qilgani, bunday tasvirlar arablar Xorazmga kirib kelgandan keyin ham tasvirlashda davom etilgani, biroq IX asr boshidan boshlab Xorazmshoh Afrig'iy hukmdorlarıning so'nggi vakillari va Ma'muniy hukmdorlar tangalarida musulmon tanga zarbiga xos an'analar etakchilik qila boshlaganiga oid ma'lumotlar va tadqiqot natijalaridan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Ekspedisiya", "Tarixdan savol", "Ko'hna manzillar" ko'rsatuvlarıning ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 12-maydagi 02-06-751-son ma'lumotnomasi). Ushbu olingan ilmiy natijalardan yurtimiz tarixini targ'ib qilish, yurtimiz aholisini tarixiy bilimlarini oshirish, O'zbekiston tarixining o'rganilmagan sahifalarini yangi tadqiq etilgan ilmiy ma'lumotlar asosida ochib berishda foydalanish mumkin;

VIII-XIII asr boshlarida Xorazmshohlar sulolalari hukmdorları tomonidan zarb qilingan mavjud tangalarni tahlil qilish va tiplarga ajratish asnosida ular jami 237 tipga oid ekanligi, tangalarning Xuroson, Movarounnahr va boshqa hududlarda zarb qilingan ko'plab turlari mavjudligi bilan bog'liq ma'lumotlar, tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun choratadbirlar dasturining IV yo'nalishida belgilangan "Vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari" bandini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 10-apreldagi 133-son ma'lumotnomasi). Ushbu tadqiqot ishidan O'zbekiston yoshlarıning xususan, oliy ta'lim muassasalari talabalarining intellektual salohiyatini oshirish, vatanparvarlik tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash shuningdek, o'z tarixini bilishga qiziqishlarini oshirish, yurtimizning boy tarixiy merosini davlat va xalqaro miqyosda targ'ib qilishda foydalanish mumkin;

Afrig'iy Xorazmshoh Ahmad ibn Muhammad, Somoniylar noibi Abdulloh ibn Ashkomning 942, 952, 959-yillarda ozodlik harakatlari oqibatida Xorazmning ikkiga bo'linishi jarayoni 959-967-yillar oralig'ida sodi bo'lgani va Ma'muniy hukmdor Muhammad ibn Alining 967-yilda amir sifatida taxtga kelishi kabi yangi ilmiy ma'lumotlar Shvesiya, Germaniya muzeylarida saqlanayotgan Xorazmshohlar davri tangalarining tahlili yordamida olingan ma'lumotlar va tadqiqot natijalaridan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Ekspedisiya", "Tarixdan savol", "Ko'hna manzillar" ko'rsatuvlarıning ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 12-maydagi 02-06-751-son ma'lumotnomasi). Natijada bu ma'lumotlar yurtimiz tarixini keng targ'ib qilish, aholini va shu mavzu ustida ish olib borayotgan tadqiqotchilarni mavzu bilan to'laqonli tanishtirishga xizmat qiladi;

Xorazmning Buyuk ipak yo'li tarmoqlari bo'ylab VIII-XIII asrlarda Skandinaviya yarimorolidan Damashqgacha, Qora dengizdan Xitoygacha bo'lgan savdo munosabatlarida o'ziga xos tranzit hudud vazifasini o'tab bergani yozma manbalar, muzey ashyolari va turli davlatlar hududidan topilgan Xorazmshohlar davri

tangalarining tahlili asosida olingan ilmiy ma'lumotlardan O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining bir qator bandlarini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 10-apreldagi 133-son ma'lumotnomasi). Ushbu tadqiqot ishidan yoshlarning vatanparvarlik ruhini oshirish, vatan tarixi fani bo'yicha intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash, shuningdek, vatanimizning turizm salohiyatini mahalliy va xalqaro maydonda keng targ'ib qilish ishlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy – amaliy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarning natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 5 ta maqola (4 ta respublika va 1 ta xorijiy nashrlarda) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Ishning tadqiqot qismi 147 bet iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanganligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Shuningdek, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**VIII-XIII asrlarda xorazmshohlar tangalari tarixining yozma manbalarda aks etishi va tarixshunosligi**" deb nomlangan. Uning "*VIII-XIII asrlarda Xorazmshohlar tangalari mavzusining yozma manbalarda aks etishi*" deb nomlangan birinchi faslida tarixiy manbalar va asarlardagi Xorazmning VIII-XIII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi haqidagi asosiy ma'lumotlar bayon qilingan.

Xorazmning VIII asrdan-XIII asrning boshlarigacha bo'lgan tarixi yoki "Xorazmshohlar davri" va u bilan bog'liq yozma merosining bibliografiyasi va adabiyotlari soni boshqa davrlar tarixiga oid manbalarga qaraganda birmuncha ko'p. Lekin, bunday xulosani o'rganilayotgan davrning barcha qismlariga nisbatan ishlatib bo'lmaydi. Chunki, mazkur davrning arablar hukmronligi ostidagi Afrig'iylar davri yoki Saljuqiylar hukmronligi ostidagi Oltintoshlar sulolasi tarixi, shuningdek, o'rganilayotgan davrdagi pul munosabatlari tarixi bo'yicha yetarlicha tarixiy manbalar yo'q. Umuman olganda ushbu davr tarixiga oid manbalarni ikki guruhga bo'lib o'rgangan maqsadga muvofiqdir:

1. XIII asrdan to XIX asrgacha bo'lgan turli tildagi yozma manbalar;

2. Yozma manbalarni, arxeologik va numizmatik manbalarni o'rganish asosida XIX asrdan keyin o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari.

Yuqorida aytib o'tganilganidek, arablar hukmronligi ostidagi Afrig'iyalar sulolasining siyosiy tarixi haqida ma'lumot beruvchi yozma manbalar nihoyatda kam bo'lib, buni o'tgan o'n asrlik davr oralig'ida yozilgan tarixiy asarlarning ozligi bilan izohlash mumkin. Chunki, o'tgan davr mobaynida birgina O'rta Osiyo hududining o'zida turlicha siyosiy mafkuralarga ega bo'lgan o'nlab davlatlar hukm surgan. Shu sababdan, uzoq vaqt davomida tarixning o'rganishda muhim manba hisoblangan ko'plab tarixiy asarlar umuman yo'qolib ketgan bo'lsa, ulardan ayrimlarining faqat ma'lum bir qismigina hozirgacha yetib kelgan.

O'rganilayotgan davr islom o'lkalarining eng rivojlangan chog'laridan biri bo'lishiga qaramay, Xorazm vohasi tarixining eng qorong'u sahifalaridan birini tashkil etadi. Chunki, hozirgacha yetib kelgan ko'pchilik tarixiy manbalardagi ma'lumotlar bir-biriga zid bo'lib, ularga tayanib muhim tarixiy voqealar sanalarini yoki voqeaning tarixiy haqiqatini aniqlash qiyin. Bu muammoga hatto, V.V. Bartold ham duch kelganini ta'kidlab o'tgan¹. Holbuki, bu davrda Saljuqiylar, Ma'muniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Xorazmshoh Anushteginiylar kabi sulolalarining yuksalishi va tanazzuli singari muhim siyosiy voqealar yuz bergan.

VIII-X asrlardagi Xorazmning siyosiy-iqtisodiy tarixini o'rganishda biz asosan Markaziy Osiyo o'lkalariga, shu jumladan, Volgabo'yi, Xorazm va unga qo'shni hududlarga sayohat qilgan Ibn Fadlan, Istaxriy, Muqaddasiy kabi arab va fors sayyohlari asarlari va esdaliklariga suyanishimiz mumkin. Biroq, ular tomonidan yaratilgan asarlarning hech biri mahalliy shart-sharoitlar va an'analarni yaxshi biluvchi mahalliy tarixchilarning asarlari o'rnini bosa olmaydi. Shunday tarixchilardan biri, bu Abu Rayhon Beruniy (973-1048) hisoblanadi.

Beruniy o'zining "Osor ul-boqiya an al-qurun al-holiya" (الاثر البقية عن القرون الخالية) asarini Jurjon shahrida 1000 yillarda yozib tugatadi. Ushbu asarda yunonlar, rumliklar, eronliklar, turkiylar, sug'diylar, xorazmliklar, harroniylar (yulduzlarga sig'inuvchilar), qibtiylar, xristianlar, yahudiylar, islomgacha bo'lgan arablar va musulmonlar yil hisoblari, hayot va mashhur kunlarini mufassal tasvirlab beradi. Asarda ko'plab tarixiy voqealar, turli millat va dinlarga oid ma'lumotlar, payg'ambarlar, soxta payg'ambarlar, podshohlar va mashhur shaxslar haqida ma'lumot berilgan.

Beruniy o'z asarini yaratishda o'zidan oldingi yozilgan qo'lyozma asarlarga tanqidiy ruhda yondashadi. Xattoki, S.P. Tolstov Beruniyning mana shu haqqoniyligi ko'plab tarixiy asarlarning yo'q bo'lishiga sabab bo'lganligini qayd qiladi². Mazkur asarda ko'plab xalqlar qatorida xorazmliklarning milliy bayramlari va taqvim haqida ma'lumotlar berilgan. Bu asar rus va o'zbek tilidagi tarjimalari 1968-yilda chop etilgan.

Yana bir manba bu Abu Ja'far at-Tabariyning "Tarix ar-rusul va-l-mulk" ("Tarixi Tabariy") asaridir. Ushbu asar umumiy tarix tipida yozilgan asarlar sirasiga

¹ Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. / Сочинения, Т. I. – Москва: Издательство Восточной литературы, 1963. – С. 77.

² Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Т. I. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Т.: "Фан", 1968. – Б. 287.

kirib, voqealar yilma-yil bayon qilingan. Biroq, bu asar shu tipdagi boshqa asarlarga qaraganda mukammalligi va daliliy manbalarga boyligi bilan anchagina farqlanadi. Asar olamning yaratilishidan 912 – 913-yillargacha bo‘lgan Rum (Kichik Osiyo), Eron va Arab xalifaligi tarkibidagi barcha davlatlar xususan Xorazm tarixida bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy voqealarni o‘zida jamlagan. Bu asar arablarning Xorazmni egallashidan boshlab to 912-yilgacha ya’ni, Afrig‘iy hukmdorlar tarixini o‘rganishimizda asosiy va ishonchli manbalardan biridir.

Keyingi davrlar musulmon tarixchilari o‘z asarlarida Xorazmshohlar davlatlari tarixini keng yoritishga harakat qilganlar. O‘rta Osiyoda jahon tarixiga bag‘ishlangan barcha asarlarda Xorazmshohlar va Xorazm tarixi, haqida alohida bayon qilinadi. Bunday asarlar sirasiga Yoqub Hamaviy, Sibt Ibn al-Javziy, Yosin al-Umariy, Zakariy al-Qazviniy, Al-Kalkashandiy, Ibn Tiqtaqa, Ibn Tangriberdiy, Mirzo Ulug‘bek, Ibn Xollikon, Ibn Qosir, Ibn al-Ibriy, Ibn al-Vardiy, Ibn al-Amid, G‘ozi Ahmad G‘afforiy, Abulfaraj, Bayhaqiy, Mirxond, Vassof, Abulg‘oziy Bahodirxon va boshqa o‘nlab tarixchilarning asarlarini tilga olish mumkin¹. Ammo ularning ko‘pchiligida bizning asosiy masalamiz bo‘lgan Xorazmshohlar davrida Xorazmdagi iqtisodiy va tanga-pul munosabatlar bilan bog‘liq voqealar biryoqlama aks etgan yoki bu mavzuga umuman e’tibor berilmagan. Shu bilan birga, bu asarlarning ko‘pchiligi mo‘g‘ullar hukmdorlarining bevosita yoki bilvosita ta’siri, talab va buyruqlari asosida, mo‘g‘ullar saroyi hujjatlaridan foydalanilgan holda yozilgan. Bu manbalarning katta bir qismida esa arab xalifalarining siyosiy qarashlari seziladi. Shuning uchun, ulardan Xorazmshohlar davri tarixi haqida ma’lumot olishimiz mumkin bo‘lgani holda, ulardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozimligini unutmaslik kerak.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi *“Xorazmshohlar davri tangalari mavzusining tarixshunosligi va arxeologik jihatdan o‘rganilishi”* deb atalib, Xorazmning VIII-XIII asrlar siyosiy tarixi shuningdek, tanga-pul munosabatlarining xorijlik va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy va arxeologik jihatdan o‘rganilishi masalalasining mohiyati ochib berilgan.

Yuqorida qayd qilinganidek, Xorazmshohlar tarixi haqida IX asrdan tortib to XIX asrgacha ko‘plab tarixchi, sayohatchi, va geograflar ma’lumotlar yozib qoldirgan bo‘lsalar, XIX asrdan to hozirgi kungacha ko‘plagan olimlar, tadqiqotchilar shu manbalar asosida ilmiy asarlar yozganliklari va tadqiqot ishlarini olib borganliklari ko‘zga tashlanadi. Ma’lumki, yozma manba ma’lumotlari qancha vaqt o‘tsa ham o‘zgarmaydi. Biroq, eng asosiysi yozma manba ma’lumotlariga yoki turli Xorazmshohlar sulolalarining faoliyatiga nisbatan qarashlar ko‘p marta o‘zgardi va o‘zgarimoqda. Ayniqsa, bu holat so‘nggi asrlardagi mafkuraviy o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Shunga qaramay, tarixiy voqeliklarga doimo ilmiy tomondan yondashishga harakat qilish kerak bo‘ladi.

XIX asrning V.V. Bartold, E. Zaxau kabi klassik tarixchi-sharqshunoslari asarlaridan tortib to hozirgi kungacha Xorazmshoh sulolalar faoliyati haqida ilmiy asar yoki maqola yozgan tadqiqotchilarning qarashlarini ilmiy jihatdan tahlil

¹ Ularning asarlari nomlari va tarkibi haqida ma’lumot uchun qarang: Собрание Восточных рукописей (СВР): (История). – Тошкент: Фан, 1998. (См. разделы: Всеобщая история, История Центральной Азии. – С. 15-252).

qiladigan bo'lsak, bu mavzu bo'yicha haligacha muammoli vaziyatlar, bahsli masalalar va qarashlar xilma-xilligiga guvoh bo'lamiz. Buning asosiy sabablari yuqorida ta'kidlaganidek, Xorazmning mo'g'ullar davrigacha bo'lgan tarixini aks ettiruvchi yozma manbalar, adabiyotlar juda ko'pchilikni tashkil qilgani bo'lsa, ikkinchidan, har bir tadqiqotchi Xorazmshohlar faoliyatini ko'pincha bir yoki bir necha manba ma'lumotlariga asosan yoritishi, ularning manba mualliflarining qarashlari ta'siri ostiga tushib qolishi hamda faqat shu muallifning fikri to'g'ri deb biryoqlama yondashuvlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu tadqiqotlarni ham davri va mazmuniga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhni xorij tadqiqotchilarining tadqiqotlari va asarlari tashkil qilgani holda, ikkinchi guruhni esa, mahalliy o'zbek tadqiqotchilari tomonidan qilingan ishlar tashkil qiladi. Aslida Xorazmshohlar davri tarixi aks etgan tadqiqotlarni turli jihatlariga (tili, mazmuni, mavzuga munosabati va hokazo) asoslanib guruhlarga bo'lish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, o'rganilayotgan davr tangashunosligiga oid bo'lgan yaxlit asar mavjud emas. Shu sababdan ushbu tadqiqot ishimizda mavzuga aloqador yirik tarixiy asarlardan tashqari ko'plab maqola, tezis, risolalardan foydalanildi.

Yaqin o'n yilliklarda bu mavzuda rus olimlari B. Kochnev, R. Reva, M. Fyodorov, E. Goncharov, A. Kuznetsov kabi olimlar bir qancha tadqiqot ishlarini amalga oshirganliklari ko'zga tashlanadi. Biroq, mazkur tadqiqotlarning aksariyati kichik hajmli ilmiy maqola va risolalardan iborat xolos.

Mazkur davr tangalar xazinalari O'zbekiston va unga qo'shni bo'lgan bir qancha hududlardan o'rganilgan. Jumladan, Tohiriylarning Xorazmdagi noibi hisoblangan Amir Mikoilning ot tasvirli tangalardan biri 1972-yilda Janubiy Xorazmdagi Sadvar yodgorligida¹, Zarafshon vodiysidagi Quldortepa yodgorligida ikkita nusxasi, 1976-yilda Samarqandning Ishtixon tumani hududidan 4 nusxasi topilgan². Bu tangalarning ayrimlari Ermitaj davlat muzeyidagi E.A. Paxamova kolleksiyasida saqlanadi³. Shuningdek, Sadvar hududida 1973–1975-yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlarida Ma'muniylar, Afrig'iy Xorazmshohlar, Somoniy hukmdorlariga oid tangalar o'rganilgan⁴. Bundan tashqari, XX asrning 90-yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a hududidan Abbosiylar, Somoniylar, Afrig'iylar, o'g'uzlar va Xorazmshoh Shohmalik tangalarini o'z ichiga olgan 154 ta tangadan iborat xazinadan topilgan⁵.

Shuningdek, Xorazmshoh Shohmalikning sher tasvirli tangalari Samarqandning Qo'ychilitepa xazinasida o'rganilgan⁶. Shunday xazinalardan yana biri 1981-yilda Ko'hna Urganch hududidan o'rganilgan bo'lib, Alouddin Muhammadning

¹ Гончаров Е. Ю., Армарчук Е.А. Монеты средневекового Садвара и Южном Хорезме//Вестник института востоковедения РАН, 2 (12). – Москва, 2020. – С. 165.

² Кочнев Б.Д. Заметки по средневековой нумизматике Средней Азии//История материальной культуры Узбекистана. Вып.19. – Т., 1984. – С. 185.

³ Отдел нумизматики Государственного Эрмитажа. Инв. – № 12745-12748.

⁴ Гончаров Е. Ю., Армарчук Е.А. Монеты средневекового Садвара и Южном Хорезме//Вестник института востоковедения РАН, 2 (12). – Москва, 2020. – С. 165.

⁵ Атаходжаев А. Денежное обращение и чудеса Хорезма // История и археология Турана. – № 5. – Самарканд, 2020. – С. 338.

⁶ Атаходжаев А. Денежное обращение и чудеса Хорезма // История и археология Турана. – № 5. – Самарканд, 2020. – С. 342.

jami 78 ta mis tangalaridan iborat edi. Mazkur tangalarning ko'pchiligi tadqiqotchi E. Davidovich ma'lumotlariga ko'ra Yalta shahridagi K.K. Popovning shaxsiy kolleksiyasidan o'rin olgan¹. Shuningdek, Alouddin Muhammad tangalari 1950-yillarda Eski Termiz hududida olib borilgan tadqiqotlar davomida 2 ta tipga oid 78 ta mis tangalardan iborat xazinasi topib o'rganilgan².

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hozirgacha o'rganilayotgan davr tarixini tangashunoslik jihatidan yoritib beruvchi yaxlit bir ilmiy ish amalga oshirilmagan. Bu davr tarixi haqida ma'lumot beruvchi bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi qo'lyozma asarlar X asrlarda yaratilgan bo'lib, ular ham asosan hududning siyosiy tarixini o'zida aks ettiradi. Mazkur asarlar ma'lumotlari va hozirgacha yetib kelgan Xorazmshohlar davri tangalarini qiyosiy tahlil qilish orqali bu davr tarixini yanada yaxshiroq anglashga va fikr yuritishga ko'mak beradi.

XX asr boshlaridan mazkur mavzuga qiziqish bir qadar ortadi va dastlabki ilmiy xulosalar beruvchi kichik hajmli maqola, tezislar shaklida asarlar paydo bo'lishni boshlaydi. Bunga o'sha davrdan boshlab topilgan arxeologik topilmalar, qadimiy tangalarni o'zida jamlagan xazinalarning topilishi sabab bo'lgan. Bunday ilmiy va arxeologik tadqiqotlar natijasi o'laroq, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida mavzuga oid ko'plab ilmiy xulosalarga ega tadqiqotlar amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin. Biroq, shuni aytib o'tish kerakki, mazkur ishlar yaxlit holda bo'lmagani bois, ular mavzuni to'liq ochib bera olmaydi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi *“VIII-XIII asrlar Xorazmshohlar davri tangalarining tarixiy tahlili”* deb nomlanadi. Ushbu bobning *“Afrig'iylar davri tangalari”* deb nomlangan birinchi paragrafida afrig'iylar sulolasi, Xorazmdagi Toxiriylar sulolasi noiblari, Somoniylar va O'g'uz hukmdorlarining 712-yildan to 995-yilgacha zarb qilingan tangalari tahlil qilingan.

VIII asr va undan oldingi davrlar tangalari bir qator tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Ushbu asrning boshlarida hukmdorlik qilgan Chag'on ismli hukmdor arab manbalarida ko'rsatilsada, bu davrda zarb qilingan tangalarda u Askarjuvar nomi bilan tilga olinadi. Tadqiqotchi B.I. Vaynberg Askajuvar va Chag'on bilan bir odam ekanligini ta'kidlagan³. Umuman uning tadqiqot ishida islomgacha bo'lgan davr tangalari jami 4 guruhga ajratilgan bo'lib, “G” toifaga mansub tangalar asosan VIII asrga oid tangalar hisoblandi.

Askajuvarga tegishli deb aytiluvchi tangalar V. I. Vaynberg tadqiqotlarida “G 11a” tipiga oid bo'lgan tangalar bo'lib, tangananing old tomonida soqolsiz tojdor hukmdor tasviri mavjud⁴.

B. I. Vaynberg ma'lumotlariga ko'ra, Askajuvar vafotidan so'ng taxtga Kanik ismli hukmdor taxtga o'tiradi. Mazkur hukmdorning kumush tangasi old tomonida naqshinkor gardish ichida yuzi o'ngga qarab tasvirlangan soqolsiz tojdor hukmdor tasvirlangan⁵. Tangananing orqa tomonida chavandoz tasviri atrofida aylana bo'ylab

¹ Давидович Е.А., Попов К.К. Клад медных монет Мухаммад б. Текеша из-под Куня-Ургенча // Письменные памятники восток 1976-1997. – М., 1984. – С. 92.

² Давидович Е.А. Термизский клад медных посеребренных дирхамов 617 /1220 г. // Эпиграфика востока VIII, – М. – Л., 1953. – С. 44.

³ Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М.: “Наука”, 1977. – С. 91-93.

⁴ Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М.: “Наука”, 1977. – С. 198.

⁵ <https://www.zeno.ru/showgallery.php?cat=4768>

MR'Y ML'K k'nyk jumlası yozilgan. Tanganing orqa tomonida yuqori chap burchagida “T4” tipidagi tamg‘a tasvirlangan. Mazkur tipdagi tanga B. I. Vaynberg tadqiqotlarida “G IV” tipi bilan belgilangan¹.

Beruniy keltirgan qadimgi Xorazmshohlar sulolasi ro‘yxatiga ko‘ra, 713-yilda taxtga chiqqan Askajamukning o‘g‘li Shavshafar VIII asr o‘rtalarida taxtga o‘tirgan². Bu ma‘lumot B. I. Vaynberg tomonidan tuzilgan Xorazmshohlar ro‘yxatida ham ko‘rsatilgan³. Shuningdek, ushbu hukmdorning Xitoy manbalarida 751-yilda Xitoyga elchi yuborganligi qayd qilingan⁴.

Mazkur paragrafda shuningdek, Afrig‘iylardan Shavat, Azkajuvar-Abdulloh, Iroq ibn Mansur, Ahmad ibn Muhammad, Muhammad ibn Ahmad, Somoniylardan Nuh ibn Asad, Toxiriylarning Abdulloh ibn Tohir, Amir Mikoil, Muhammad ibn Yahyo, O‘g‘uz yabg‘ularining Azkajuvar tangalari asosida zarb qilingan jami 68 tipga mansub bo‘lgan tangalar tahlil qilingan.

Ikkinchi bobning “*Ma‘muniylar davri tangalari*” deb nomlangan ikkinchi bandida Xorazmda Ma‘muniylar sulolasining hokimiyatga kelgan davrlardan boshlab sulolaning so‘nggi vakili taxtdan ag‘darilishigacha bo‘lgan davrda zarb qilingan tangalarning turlari tadqiq qilindi. Jumladan, Xorazmda Ma‘mun nomi qayd qilingan dastlabki kumush tanga hijriy 387-yilda (mil. 996 – 997) Ma‘mun ibn Muhammad (996/386 – 997/387) tomonidan zarb qilingan. Biroq ayrim tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, Jurjoniya (Gurganch) shahri noibi hisoblangan Muhammad ibn Alining hijriy 356-yilda (mil. 967) zarb qilgan tangasi Ma‘muniylar sulolasi vakillari tomonidan zarb qilingan ilk tangadir⁵. Qolaversa, O‘. Diler o‘z tadqiqotlarida ham shu yilda zarb qilingan Ma‘muniylar sulolasiga oid bo‘lgan tanga mavjudligini ta‘kidlagan⁶. Muhammad ibn Ali tadqiqotchilar fikricha Gurganch amiri, Ma‘mun ibn Muhammadning otasidir. Tadqiqotchi A. O‘zbayrakdar izlanishlarida Ma‘mun xonadoni hijriy 348 – 372-yillar (mil. 959 – 982) orasida Somoniylar tomonidan asos solingan ta‘kidlagan⁷.

Muhammad ibn Alining yuqorida qayd qilingan tangasining old tomoni markazida “لا اله الا الله وحده لا شريك له” jumlası yozilgan. Xorazm tangalari uchun an‘anaviy hisoblangan nuqtali aylana tashqarisida tanga zarb qilingan joy va sana “بسم الله ضرب هذا الفلّس بجرجانية سنة ست و خمسن... و ثلاثماية” shaklida berilgan. Tanga markazining tepa qismida kichik doira shaklidagi belgi mavjud.

Tanganing orqa tomoni markazida “الله محمد رسول الله محمد ابن علي” jumlası yozilgan. Tanganing aylanası bo‘ylab Qur‘on Karimning Rum surasida kelgan 4-5 oyatlaridan parcha “الله الأمر من قبل ومن بعد ويؤمّنذ يفرح المؤمنون بنصر الله” shaklida yozilgan. Bu tanga noyob tanga hisoblanib, uning bitta nusxasi Germaniyaning Tyubingen shahridagi Eberhart Karls universiteti Sharq va Islom tangalari bo‘limida №94-44-19 tartib

¹ Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М.: “Наука”, 1977. – С. 62.

² Zachau E., Zur Geschichte und Chronologie von Khwârizm. – Wien, 1873. – P. 33.

³ Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М.: “Наука”, 1977. – С. 81.

⁴ Yıldırım K., Çin kaynaklarında Türkistan şehirleri. – İstanbul, 2020. – S. 170.

⁵ Рева Р., Калинин В., Атаходжаев А. Нумизматические дополнения к истории Хорезма X в. // XVI-ВНХ. – Санкт-Петербург, 2011. – С. 58-60.

⁶ Diler Ö. İslam darp yerleri. 1 cilt. – İstanbul. Mas Matbacılık A.Ş., 2009. – S. 431.

⁷ Özbayraktar A. Me‘mûniler devrinde Harezm. Dok.tezi. Selçuk Üniversitesi. – Konya. 2021. – S. 45.

raqami ostida saqlanadi¹. Tangalarning diametri 20-21 mm, og'irligi o'rtacha 1,6 grammni tashkil qiladi².

Umuman olganda Ma'muniy Xorazmshohlar davri tangalari bizning davrimizgacha kam miqdorda yetib kelgan. Shuning uchun kelajakda bu sulola hukmdorlarining yangi tangalari topilishi ehtimoli yo'q emas. Ma'muniylar tangalarining barchasi islom na'munasi asosida zarb qilingan tangalardir. Tangalarda Qur'onning Tavba, Saf, Fath va Rum suralaridan oyatlar keltirilgan. Fals nominalidagi tangalar asosan Somoniylar tangalaridan nusxa ko'chirgan holda zarb qilingan. Jumladan, Ali ibn Ma'munning Buxoroda zarb qilingan tangasi Somoniy hukmdor Nuh ibn Mansur tangalariga juda o'xshash. Tangalarda Nuh ibn Mansur va Abdulmalik nomlari tilga olingan. Ma'muniy hukmdorlar tangalarida Arab xalifalaridan At-Ta'i lillah (974-991) va Al-Qodir billoh (991-1031) nomi qayd qilingan.

Afsuski, tadqiqotlar davomida Oltuntoshlar sulolasiga oid bo'lgan tangalarni aniqlashning imkoni bo'lmadi. Dastlabki, tahminga ko'ra G'aznaviylar sulolasi Xorazmni egallagach u yerda hukmronlik qilayotgan hukmdorlarga tanga zarb qilishga imkon bermagan. Boshqa bir tahminga ko'ra esa, Oltuntoshlar davrida boshqa sulolalar kabi hech bo'lmasa mis tangalar zarb qilingan ammo, bugungi kunga qadar yetib kelmagan.

Oltuntoshlar sulolasining so'ngi vakili o'ldirilgach uning o'rnini egallagan o'g'uz hukmdori Shohmalik nomi esa, Xorazm tarixi uchun bir qadar yangi nom bo'lib, uning "Xorazmshoh" unvoni bilan zarb qilgan tangalari, ushbu unvonni olgan siyosiy xonadonlar soni to'rtta emas balki, beshta degan fikrga kelishga asos bo'la oladi.

Ushbu bobning "*Xorazmshoh – Anushteginiylar davrida tanga-pul tizimi*" deb nomlangan uchinchi paragrafida bu sulola hukmdorlari tomonidan zarb qilingan jami 135 turdagi tanga turlari tahlil qilingan. Xorazmshoh Anushteginiylar davrida O'rta Osiyo va saltanatning qolgan hududlarida zarb qilingan tangalar musulmon an'analari asosida zarb qilingan bo'lsada, bir qancha o'zgarishlarga uchragan. Masalan, tangalarning aksariyatida, Qur'ondan keltirilgan oyatlar butunlay chiqarib tashlangan bo'lsa, ayrimlarida hayvonlar va insonlar tasviri tushirilgan. Buni saltanat tarkibiga madaniyat jihatidan xilma-xil davlatlar kirganligi, tangalar esa o'zidan oldingi shu hududning hukmdorlari tomonidan zarb qilingan tangalar na'munasida zarb qilinganligi bilan izohlash mumkin. Anushteginiylarning dastlabki ikki hukmdori davrida zarb qilingan tangalar fanga ma'lum emas. Alouddin Otsiz davrida zarb qilingan tangalar aynan Saljuqiy hukmdorlar tangalaridan na'muna olgan holda yasalgan. Xorazm hukmdorlaridan El-Arslon zarb qilingan bironta hukmdor tangasida "Xorazmshoh" unvoni uchramaydi, ya'ni El-Arslon va undan keyingi hukmdorlar tangalarda asosan "Sulton" unvoni bilan tilga olingan. Buni davlatning siyosiy chegaralari Xorazmning geografik chegaralaridan chiqib, ulkan saltanatga aylanganligi bilan izohlash mumkin.

¹ Mazkur ma'lumot va tanganing fotosurati Eberhart Karls universiteti Sharq va Islom tangalari bo'limi xodimi Doktor Sebastyan Xanshteyn tomonidan taqdim etildi.

² Рева Р., Калинин В., Атаходжаев А. Нумизматические дополнения к истории Хорезма X в. // XVI-ВНХ. – Санкт-Петербург, 2011. – С. 58.

Jumladan, bu paragrafda Anushteginiylar sulolasining Alouddin Otsiz, El-Arslon, Sultonshoh Mahmud, Alouddin Takash, Alouddin Muhammad singari hukmdorlarining o‘z siyosiy faoliyatlari davomida Xorazmdan tashqari Movarounnahr, Xuroson, hozirgi Pokiston, Ozarbayjon, Eron va Gruziya hududlarida zarb qilingan tangalari ilmiy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqotlar davomida asosan tangalarning hajmi, ularda ishlatilgan naqshlar, belgi, bezaklar, gardish yoki hoshiyalarning turlari, hukmdorlarning taxallus, unvon va kuniyalari kabi detallariga e‘tibor qaratilgan.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“VIII-XIII asrlar Xorazm tangalarida siyosiy, iqtisodiy hayotning aks etishi va ulardagi yozuvlar tahlili”** deb nomlanadi. Mazkur bobda o‘rganilayotgan davrda zarb qilingan Xorazm tangalarida qo‘llanilgan hukmdorlarning taxallus, unvon va kuniyalari masalasi chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, tangalarning zarb markazlari mavzusiga alohida to‘xtalib o‘tildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bob, birinchi fasli **“VIII-XIII asrlarda Xorazmdagi siyosiy ahvol”** deb nomlanib, unda Xorazmda VIII-XIII asrlarda yuz bergan ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarning tangalarda aks etishi masalasiga e‘tibor qaratiladi.

VIII asr boshlarida hukmronlik qilgan hukmdor Azkajuvar (Chag‘on) tangasining ikki turida Chag‘oniyon hukmdorlariga tegishli bo‘lgan tamg‘aning aks ettirilishi Xorazmda VIII asrda yuz kelgan siyosiy vaziyat haqidagi ba‘zi ma‘lumotlarni beradi. Bu tipdagi tangalarda tasvirlangan “T 11” tipidagi tamg‘aga tayangan tadqiqotchi A.V. Gudkova Xorazmning o‘sha davrda turkiy sulolaga mansub bo‘lgan asli chag‘oniyonlik hukmdor tomonidan boshqarilgani haqida fikr bildiradi¹. Tadqiqotchi G‘. Boboyorov esa mazkur tamg‘aning VII asr ikkinchi choragida G‘arbiy Turk xoqonligi tomonidan zarb qilingan tangalarda uchrovchi tamg‘aga juda o‘xshashligini ta‘kidlaydi². Tangalarda Chag‘oniyon hukmdorlari tamg‘asidan tashqari Xorazm tangalari uchun an‘anaviy hisoblangan “T 4” tipidagi tamg‘a³ faqat “G 11a” tipidagi tangalarda tasvirlangan bo‘lib, “G 11b” tipidagi tangalarda umuman tasvirlanmagan. Yuqorida ta‘kidlaganidek, tarixiy manbalarga tayanadigan bo‘lsak, Qutayba Xorazmni 711-yilda egallagan va Xorazm hukmdori bo‘lgan Chag‘onga ukasi Hurzodga qarshi kurashda unga yordam beradi. Bizningcha, Chag‘on aynan shu davrda Chag‘oniyondan kelgan va Xorazm taxtini egallagan. Xorazmning mahalliy hukmdorlar sulolasiga mansub bo‘lgan Hurzod esa unga qarshi kurashgan bo‘lishi mumkin. Ya‘ni, Chag‘onning Afrig‘iylarga taalluqli bo‘lmagan boshqa suloladan ekanligi haqiqatga yaqin. Chunki, tadqiqotlar davomida o‘rganilgan Askajuvar nomi bilan zarb qilingan mis tangada Xorazm tangalari uchun xos bo‘lgan chavandoz tasviri yo‘q va uning o‘rnida boshqa-bir sulolaga oid bo‘lgan tamg‘aning tasvirlanishi tasodif bo‘lmasa kerak. Y.G‘ulomovning fikricha, Qutaybaning Xorazmga ikkinchi marta uyushtirgan yurishidan so‘ng, Xorazmda mahalliy sulola hukmronligi qayta tiklanadi⁴. B.I. Vaynberg ma‘lumotlariga ko‘ra esa, Qutayba

¹ Гудкова А.В. Ток-кала. – Т., 1964. – С. 120.

² Бобоёров Ф. Ғарбий Турк хоконлиги: тарихи ва танга пул тизими. – Т.: “Тафаккур авлоди”, 2021. – Б. 103.

³ Вайнберг Б.И. Монеты древнего Хорезма. – М.: “Наука”, 1977. – С. 202.

⁴ Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т., 1957. – Б. 123.

Xorazmdan ketgach, mahalliy aholi qo'zg'olon ko'taradi va Chag'on o'ldiriladi. Natijada Qutayba Xorazmga ikkinchi yurishini 713-yilda amalga oshiradi¹.

A. M. Mendelshtamning fikricha, VI asr oxirida Shimoliy Toxariston hududida Turk xoqonligiga qarshi qo'zg'olon ko'targan va Eftalitlar davlatini qayta tiklashga urungan Shuman, Axarun, Chag'oniyon, Termiz, Qobadiyon va Xuttalon singari bir qancha mayda hukmdorliklar - mulkliklar mavjud edi². Bu mayda eftalitlar davlatidan qolgan viloyatlar ittifoqida muhim rolni aynan Chag'oniyon o'ynagan. VII asr o'rtalarida arablarning O'rta Osiyoga yurushi vaqtida Murg'ob daryosi va tog'i oralig'ida arab qumondoni al-Axnaf ibn Qays qo'shini va ushbu mulkliklar ittifoqi yetakchisi hisoblangan Chag'oniyon hukmdori o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Ushbu jangda arablar g'alaba qozonsa-da eftalitlarning so'nggi vakillaridan birining halok bo'lganligi haqida hech qanday ma'lumotlar berilmagan³. Balki, qandaydir yo'l bilan ushbu ittifoq qo'shinlari boshlig'i Xorazmga borgan va mahalliy hukmdorlarni taxtdan ag'darib, hokimiyatni o'z qo'liga olgandir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi, ikkinchi paragrafi **“VIII-XIII asrlarda Xorazmda iqtisodiy hayot va savdo munosabatlari”** deb nomlanib, unda Xorazmning VIII-XIII asrlarda Buyuk ipak yo'li bo'ylab olib borilgan savdo munosabatlari, elchilik aloqalari, iqtisodiy omillar sabab vohada yuz bergan siyosiy o'zgarishlar, Xorazmda zarb qilingan tangalar nominallari va islom davrigacha muomalada bo'lgan numizmatik terminlar masalasiga e'tibor qaratildi.

